

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TERMINOLOGIYASI HAQIDA

Zokirova Mohlaroy

FarDU filologiya fakulteti o'zbek yili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Aldashev Ilxom

FarDU Axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada axborot kommunikatsiya terminlari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, axborot kommunikatsiyasiga doir bo'lgan terminlardan sodd tub terminlar ajratib, statistik tahlil qilinadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *termin, atama, kasb-hunar leksikasi, sodd tub terminlar, terminologiya.*

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi uch qismdan tashkil topadi: terminlar, kasb-hunarga oid atamalar va umumxalq so'zlari. Bularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan biri ikkinchisidan farqlanadi. Umumxalq so'zlari o'zining ko'p ma'noliligi, barcha uchun tushunarli bo'lishi, ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'lishi bilan atamalar va terminlardan farqlanadi. Umumxalq so'zlari barcha uslub matnlarida birdek qo'llana olishi ham uning boshqa leksik birliklardan farqli tomonini ko'rsatadi. Yana bir eng asosiy xususiyati – bu lug'atning asosiy qismini tashkil qilishidir. Kasb-hunar atamalari va terminlar esa umumxalq so'zlariga nisbatan kam ekanligi bilan xarakterlanadi. Kasb-hunar atamalari umumxalq so'zlardan farqli ravishda terminlarga yaqinlashish jarayonida bo'ladi. Ilmiy til bilan aytganda terminologizatsiya jarayoniga yaqin bo'ladi. Kasb-hunarga oid so'zlar ma'lum bir sotsial qatlamga tushunarli bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Ularning terminlardan farqi umumxalq so'zlariga yaqinligidir. Masalan, qaychi, pichoq, igna kabilar.

Terminlar esa umumxalq so'zlari va atamalardan farqli ravishda bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Termin lotincha terminus – “chegara, oxirgi nuqta” ma'nosida qo'llanib, fan, texnika, san'at va ma'daniyatga oid bo'lgan birliklardan tashkil topadi. Bu birliklar birlashib terminalogiya sohasini tashkil qiladi. Terminlar o'zining bir ma'noliligi bilan tilning boshqa lug'aviy qatlamidan farqlanib turadi. Shuningdek, terminlar bir, ikki so'zdan yoki so'zlar birikmasidan tashkil topishi mumkin. Fanning barcha sohalarida o'ziga xos terminalogik apparat mavjud bo'lib, ular ana shu fan sohalarining ilmiy-nazariy asoslarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Har bir sohaning terminologik apparati ana shu sohaning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, matematika faniga oid bo'lgan sinus, kosinus, burchak, konus va shu kabi bir qator terminlar sohaning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Globus, atlas, xarita kabi geografiyaga oid terminlar fan mohiyatini ochib beradi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid terminlar ushbu maqolamizning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Biz ushbu tezisda 2010-yilda Toshkent A.Y.Atadjonov, D.M.Amirov, A.Y.Atadjonov, D.A.Ibragimov, Z.Y.Rahimjonov, S.S.Saidxo'jayev mualliflar jamoasi tomonidan nashr

etilgan “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” izohli lug’atidagi soda tub terminlar haqida fikr yuritamiz. Lug’atdagi mavjud terminologik tizm tarkibidan soda tub terminlarni statistik usul asosida ajratib chiqdik. Hulosalar quyidagi jadvalda beriladi:

№	Harf	Sodda-tub terminlar miqdori	Namuna
1.	a	17 ta	Avatar, Agent, Adash, Addon, Akkaunt, Aktiv, Alias, Analog, Antenna, Arxiv, Applet, Audit, Atribut, Axborot, Attestasiya, Autentlik, Animatsiya
2.	b	15 ta	Bayt, Bayroq, Banner, Belgi, Bastion, Billing, Bin, Bit, Blog, Blok, Bod, Bot, Brauzer, Broker, Bufer,
3.	d	12 ta	Dastur, Defeys, Dialog, Demon, Dizayn, Dizering, Domen, Disk, Dorvey, Dorgen, Distributiv, Diskret,
4.	f	14 ta	Faza, Fayl, Filtr, Fleym, Flesh, Fishing, Flid, Fon, Format, Forum, Fraktal, Freym, Friker, Frod,
5.	g	6 ta	Generator, Geytvey, Graf, Gradient, Gurux, Grif
6.	x	9 ta	Xabar, Xab, Xaker, Xat, Xato, Xesh, Xit, Xost, Xendover
7.	l	5 ta	impuls, imzo, inkor, imtiyoz, internet,
8.	J	6 ta	jitter, jarayon, jurnal, joystick, jamper, jadval.
9.	K	40 ta	kabel, kadr, kalit, kallak, kamera, kanal, kaptcha, katalog, kvant, kesh
10.	L	8 ta	lamer, langar, liniya, login, log, local, link, libratsiya
11.	M	23 ta	makro, maydon, makros, mandat, manzil, mantiq, marker, maskarad
12.	N	2 ta	nik, navigatsiya
13.	O	7 ta	obekt, oyna, oktet, onlayn, operator, opsiya,oqim
14.	P	15 ta	paket, papka, parol, patch, ping, piring, plugin, piksel, plenum, polosa, port, portal, printer,pul
15.	Q	3 ta	qator, qobiq, qurt
16.	R	15 ta	ramz, rang, rastr, registr, reestr, reklama, resurs, repiter, roumer, robot, router, runet, rutkit,rouming, rezistr
17.	S	21 ta	sayt, saxifa, sektor, switch, seksiya, server, sessiya, signal, sizish, skaner, skript, snippet, slot, spam, spektr, sota, static, standart, sykut,subekt, so’z, so’rov

18.	T	18 ta	taglik, takt, taymer, tarmoq, tashrif, ta'sir, taxdid, tekeks, tovush, token, tola, trakt, transit, trafik, tred, trigger, tus, to'r
19.	U	3 ta	Usul, ustun, uya
20.	V	8 ta	vayp, varez, veb, vidjet, viki, virus, voqea, vektor
21.	X	2 ta	xujjat, hujum
22.	Y	1 ta	Yaxlit
23.	Z	1 ta	Zombie
24.	SH	9 ta	Shakl, shina, shirf, shlyuz, shovqin, shleyf, shlem, shrift, shtabel
25.	CH	3 ta	chastota, chat, chip
26.	O'	1 ta	o'zak

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, terminlar boshqa lug'aviy birliklardan tubdan farqlanadi. Har bir fan sohasiga daxldor terminlar ana shu fan mohiyatini ochib berishga hamda ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Jumladan, axborot kommunikatsiya terminlari ham shu sohaning ilmiy apparatini tashkil qilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu sohadagi tub terminlar sifatida 264 tani tashkil etadi (lug'atda berilganlari).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sodiqov A., Abduaziziov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. Atadjonov A.Y., Amirov D.M., Atadjonov A.Y., Ibragimov D.A., Rahimjonov Z.Y., Saidxo'jayev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati (rasmlari bilan). – Toshkent, 2010.